



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

AZILOVA ZUHRA

*Nukus davlat pedagogika instituti, O'zbek adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi
azilovazuhra@gmail.com +998944502494*

NAVOIY TUYUQLARINING QORAQALPOQCHA TARJIMASIGA DOIR

Annotatsiya: Mazkur maqolada Navoiyning tuyuqlari qoraqalpoqcha tarjimasi bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Tarjimonning soʻz qoʻllash mahorati, tarjima usullari, tarjimaning adekvatligi, tuyuq janri talablari, uning tarjimada aks etishi kabi masalalar oʻrganilgan.

Tayanch soʻzlar: badiiy tarjima, tarjimon, tuyuq, adekvat, asliyat, vazn, qofiya, mazmun, shakl.

К ВОПРОСУ О ПЕРЕВОДЕ ТУЮКОВ АЛИШЕРА НАВОИ НА КАРАКАЛПАКСКИЙ ЯЗЫК

Аннотация: В данной статье проводится сравнительный анализ туюков Алишера Навои с их каракалпакским переводом. Рассматриваются такие вопросы, как умение переводчика использовать нужный эквивалент и методы перевода; адекватность перевода; особенности жанра «туюк» и способы его передачи на каракалпакский язык.

Ключевые слова: художественный перевод, переводчик, туюк, адекватный, оригинальный, вес, рифма, содержание, форма.

TO THE MATTER OF TRANSLATION OF ALISHER NAVOIY'S TUYUKS INTO THE KARAKALPAK LANGUAGE

Annotation: This article deals with a comparative analysis of Alisher Navoiy's tuyuks with their Karakalpak translation. Such issues such as the translator's ability to

apply appropriate equivalents and methods of translation, adequacy of the translation, the peculiarities of the genre of tuyuk and the ways of rendering it into the Karakalpak language genre are studied.

The key words: artistic translation, translator, tuyuk, adequate, originality, weight, rhyme, content, form.

Kirish (Introduction). Buyuk siymo Alisher Navoiy asarlarini chuqur o‘rganish va asarlarini tarjima qilish turkiy xalqlar adabiyotida keng tarqalgan va hozirgi kunga qadar dolzarb mavzuga aylanib kelmoqda. Bu borada turli millat ijodkorlari badiiy tarjima sohasida keng faoliyat olib bormoqda. Shu jumladan, qoraqalpoq adabiyotida ham badiiy tarjimashunoslik sohasida bir qancha ishlar o‘z aksini topdi va topmoqda. Bu jarayonda o‘zbek va qoraqalpoq adabiyoti o‘zaro bir-biriga ta’sir qilib, bir-birini boyitib bormoqda. O‘zaro ta’sir va bir-birini boyitishda asosiy vosita – bu tarjima. Badiiy tarjima eng ko‘p muammoli san’atlardan biri. Tarjima shunday bo‘lishi kerakki, u bemalol asl nusxa o‘rnini bosa olsin. Adabiyotlar o‘rtasida o‘zaro ta’sir masalasini tezlashtirib bo‘lmaydi, bu jarayon tabiiy ravishda bo‘lsa maqsadga muvofiqdir. Ammo bu jarayonga e’tiborsiz qarab ham bo‘lmaydi. Zero, Asqad Muxtor ta’kidlaganidek, “O‘zgalar tajribasi bilan o‘z tajribasini chinakam badiiy uyg‘unlashtira olishga eng munosib misol Alisher Navoiydir” [14;18]. U o‘zigacha bo‘lgan Sharqdagi mashhur afsona, rivoyat va doston syujetlariga asoslanib, jahonshumul, badiiy jihatdan mukammal asarlar yaratdi. Endilikda uning asarlari dunyo tillariga, qardosh qoraqalpoq tiliga ham tarjima qilinmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. (Literature review). Navoiy “Farxad ham Shirin” dostonini tarjimasi M.Dariboyev, J.Aymurzayev, A.Shamuratov, N.Japaqov, R.Majitov, K.Jumaniyozovlar [9], “Jeti ıqlım” dostoni M.Matnazarov [10], “Saylandılari” D.Aytmuratov [11], “G‘azzeller”i D.Aytmuratov [12], “G‘azzeller”i D.Aytmuratov va S.Ibragimov [13] tamonidan tarjima qilingan. Bunndan tashqari, Navoiy asarlari “Qoraqalpoq adabiyoti” gazetasining 2015-jil №2 sonida “Mángi bulaqlar” sahifasida J.Shamuratov tarjimasida “G‘azzeller” nomi ostida berilgan. Mazkur gazetaning 2020-yil №2 sonida Navoiy “G‘azzeller, rubayılar, qıt’alar, hikmetler”i hamda 2022-yil №1-2 sonida Navoiy “G‘azzeller”i S.Ibragimov tarjimasida berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Kichik lirik janrlar hisoblangan tuyuqlarni qiyosiy tahlil qilishda G‘.Salomov, N.Komilov, X.Hamidov singari tarjimashunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlaridan foydalanildi. Navoiyning tuyuqlarining o‘zbekchadan qoraqalpoq tiliga tarjima variantlari qiyosiy tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ta'kidlash kerakki, tuyuq janrning ajoyib namunalarini faqat turkiy she'riyatda uchratamiz. Binobarin, arab va fors adabiyotida yo'q. Alisher Navoiy bu janrning mezon va qoidalarini "Mezon ul-avzon" asarida nazariy jihatdan asoslab bergan va o'zi mazkur janrda badiiy mukammal tuyuqlar yaratgan. Xususan, "Badoe' ul-vasat" devoniga 13 ta tuyuq kiritilgan. Navoiyning o'zi "Mezon ul-avzon" asarida bu janr haqida quyidagicha ma'lumot beradi: "Yana turk ulusi, bataxis chig'atoy xalqi aro shoye' avzondurkim, alar surudlarin ul vazn bilan yasab, majolisda ayturlar. Birisi tuyug'dirkim, ikki baytqa muqarrardur va sa'y qilurlarkim, tajnis aytilg'ay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdur..." [4. 100].

Navoiyning D.Aytmuratov va S.Ibragimov tomonidan qoraqalpoq tiliga tarjima qilingan "G'azzellar" to'plami 2020-yilda nashrdan chiqdi. Mazkur to'plamga Navoiy tuyuqlaridan bir qator tarjimalar kiritildi. Mazkur maqolada tarjima qilingan tuyuqlarni asliyat bilan qiyosiy o'rganishga harakat qildik: Asliyatda:

Charx tortib xanjari hijron **bu tun**,

Qo'ymadi bir zarra bag'rimni **butun**.

Tunga borib bizni behol aylading,

Ne baloliq tun emish, yo rab, **bu tun**. [1; 523]

Birinchi misrada "bu tun" so'zi "qorong'u kecha" ma'nosida, ikkinchi misradagi "butun" so'zi "sog' butun" ma'nosida qo'llanilgan. Keyingi ikki misradagi "tun" "kechasi" ma'nosidan tashqari, "joy" ma'nosida ham kelgan.

Tarjimada:

Pálek mağan hijran qanjarın tarttı bul tún,

Qoymadı bir zárre bawırımdı pútin,

Tún qamap kelib bizdi biyhal áyledi,

Ne báleli tún boldı, ya Ráb, bul tún [2.25].

Mazmuni: Falak menga bu tun hijron xanjarini tortdi, bir lahza bag'rimni butun qo'ymadi. Uchinchi misradagi qamap so'zi "tutqinga aliw" [5.113] degan ma'noni bildiradi. Demak, bu misralarda tun tutqinlikka olib, behol qildi, yo Rab, ne baloli tun bo'ldi, bu tun degan mazmun ifodalangan. Birinchi va uchinchi misrada "bul tún" so'zi "bu tun" ma'nosida, ikkinchi misrada "pútin" so'zi "butun" ma'nosida qo'llanilgan. Tarjimada ham asliyatdagi g'oyaviy mazmun aynan ifodalangan. Tarjimon asliyatdagi mazmunni o'quvchiga to'lig'icha yetkazib bergan. Qofiyalanishi: "bul tún", "pútin" "bul tún".

Shuni esdan chiqarmaslik lozimki, tuyuq janri talablaridan biri tuyuqda tajnisli qofiya yani qofiya shakldosh so'zlardan tashkil topishi lozim. Zero, "Nima bo'lganda ham tarjimaga ishi tushgan har qanday kishi yaxshi biladiki, she'riy tarjima ancha murakkab san'at [6.3].

Asliyatda “bu tun” va “butun” soʻzlari tajnisli qofiya boʻlib kelib, tajnisning “tajnisi murakkab” turini hosil qilgan. Tajnisi murakkabda shakldosh soʻzlarning biri yaxlit bir soʻzdan, ikkinchisi ikki soʻzdan iborat boʻlishi orqali vujudga keladi. Asliyatdagi tuyuq ham tajnisi murakkabga misoldir. Lekin yuqoridagi tarjimada “bul tún” va “pútín” soʻzlari oʻzaro omonimlikni hosil qilmagan. Bizningcha, tarjimada tuyuq janrining mazkur mezon va talabiga tarjimada eʼtibor qaratilsa maqsadga muvofiq boʻlardi.

Tuyuq janri shartlaridan biri aruzning ramali musaddasi mahzuf yoki maqsur vaznida yozilishi kerak. Yuqoridagi tuyuq ham ramali musaddasi mahzuf vaznida yozilgan:

Charx tortib xanjari hijron **bu tun**,

– V – – / – V – – / – V –

Qoʻymadi bir zarra bagʻrimni **butun**.

– V – – / – V – – / – V –

Tunga borib bizni behol aylading,

– V – – / – V – – / – V –

Ne baloliq tun emish, yo rab, **bu tun**.

– V – – / – V – – / – V –

Tarjimada:

Pálek mağan hijran qanjarın tarttı bul tún,

V - V - - - - V - - V - -

Qoymadı bir zárre bawırımđı pútín,

– V – – – V V V – – V –

Tún qamap kelib bizdi biyhal áyledi,

– V – V – – – – – V –

Ne báleli tún boldı, ya Ráb, bul tún.[25]

– V V – – – – V – – –

Koʻrinadiki, tarjima aruz vazniga solinmagan. Buni qoraqalpoq sheʼriyati asosan barmoq vazniga asoslangani bilan izohlash mumkin. Aruz sheʼriy tizimi ancha murakkab sanʼat boʻlib, mumtoz lirik janrlar mazkur vaznda yaratilgan. Atoqli shoir va tarjimon V.Bryusov shunday fikr bildirgan edi: “Sheʼriy asarda fikr va obrazlar qanchalik muhim boʻlsa, uning tuzilishi, satrlardagi jummalarning oʻziga xos xususiyati va soʻzlarning alohida jarangi, ohangdoshliklar ham shunchalik muhimdir. Modomiki, shunday ekan va tarjima asarning yangi tildagi hayoti boʻlarkan, demak, oʻsha yangi til musiqasi, ohangdoshlik xususiyatlari unda aks etishi kerak. Ammo bu qanchalik boʻladi – shoir tarjimonning mahoratiga bogʻliq” [7.109].

Ey nigoro, qoshlaringdek yo qani?

Furqatingdin pora qildim yoqani,

Oshiqi bechoradin qilgil hazar,
Yohud ohi tutqusidur yoqani [1.95].

Mumtoz adabiyotda ma'shuqaning qoshi "yoy"ga o'xshatiladi. Birinchi misradagi yo yoyning qisqa shakli. Yani ma'shuqaning qoshlari yoydek ekanligini anglashimiz mumkin. Ikkinchi misradagi "yoqani" – "kiyimni yoqasi". Misra mazmunidan oshiqning ayriliq azobidan nola chekishi, yoqasini pora qilishini tushunamiz. Uchinchi misradagi "hazar" so'zi quyidagicha izohlanadi: "Hazar saqlanish, ehtiyot bo'lish, cheklanish". To'rtinchi misradagi "yoqani" – "hamma yoqni" ma'nosida qo'llanilgan. Demak oshiqi bechoradan ehtiyot bo'l, bo'lmasa uning ohi hamma yoqni tutib ketadi degan mazmun anglashiladi. Bu tuyuq qoidaga ko'ra aruzning ramali musaddasi mahzuf vaznida yozilgan.

Taqte'si:

Ey nigoro, qoshlaringdek yo qani?

– V – – / – V – – / – V –

Furqatingdin pora qildim yoqani,

– V – – / – V – – / – V –

Oshiqi bechoradin qilgil hazar,

– V – – / – V – – / – V –

Yohud ohi tutqusidur yoqani

– V – – / – V – – / – V –

Tarjimada:

Áy nigar, kózlerińdey kóz qáne?

Hijranińda jılawdan aqtı kózdiń qanı.

Telmiriwden jolıńa, áy bawırı tas,

Intizarińda aǵıptı kóz, qáne?

Tuyuq mazmuni quyidagicha: "Ay, nigor ko'zlaringday ko'z qani, ayriliqda yig'lab, ko'zimning qoni oqdi, yo'linga termilishdan ko'zim oqib tushdi, ko'zim qani? Qofilanishi: qáne?, qanı, qáne? Birinchi va to'rtinchi misralarda "qáne?" so'zi so'roq ma'nosida, ikkinchi misrada "qanı" "qon" ma'nosida qo'llanilgan. Demak, tuyuqda ayriliqdan ezilayotgan, mashuqasini kutib ko'zi oqib tushgan oshiq holati ifodalangan. Ko'rinadiki, asliyadagi ma'no-mazmun tarjimada boshqacha. Tarjimon yangi ifodalar qo'llanilishi, tuyuq mazmunini o'zgarishiga sabab bo'lgan. Qolaversa, tarjimada vazn ham saqlanmagan. "Aslida, she'riy tarjimadan kuzatiladigan maqsad bir tilda yaratilgan nazmiy obidani boshqa til vositalari bilan qayta yaratishdan iborat. Basharti, tarjimada asl nusxaning barcha zohiriy belgilariga rioya qilingan: vazn, qofiya, radif, alliteratsiya va hakazolar "aynan" saqlangan, hamma narsa o'z joyida bo'lsa-yu, boshqa tilda asarning botiniy go'zalligi: estetik qiymati, ma'nosi shirasi, ta'sirchanligi yo'qolsa, bunday tarjima orginalga ekvivalent bo'la olmaydi" [6.5].

Asliyatda:

Eshitdim zulffingi yuzdin kechibdur,
Dedimki, kecha kunduzdin kechibdur;
Agar yuz yoshluya rahming kelursa,
Mening yoshim iki yuzdin kechibdur.

Zulf so‘zi ikki ma’noda qo‘llaniladi: “1. soch, soch o‘rimi 2. kokil gajak” [3;652]. Birinchi misrada: “kechibdur” so‘zini ikki xil ma’noda tushunish mumkin: 1) zulfingni ya’ni soch o‘rimlaringni soni yuzdan o‘tibdi; 2) zulfing ya’ni kokiling yuzingdan o‘tib, yuzingni “to‘sib qo‘yibdi”. Ikkinchi misra esa “kecha kunduzdan voz kechibdi” ma’nosini bildirib, kech tushgan payt nazarda tutiladi. Uchinchi va to‘rtinchi misralardan esa agar yuz yoshli odamga rahming kelsa, mening yoshim ikki yuz yoshdan oshibdi, mazmuni ifodalangan. Yuz so‘zi ham uch o‘rinda kelib, birinchi misra iyhom san’atiga misol bo‘ladi: “inson yuzi”, va “miqdor” ma’nolarida qo‘llanilgan. Uchinchi va to‘rtinchi misralarda “umr o‘lchovi” ma’nosida kelgan.

Tarjimada:

Esittim, burimlarin sanı jüzden ótipti,
Neshe tın hám kún kórsem, ol shamadan ótipti,
Eger reyimin kelse jüz jas kórgenge –
Menin jasım eki jüzden ótipti.

Tuyuq mazmunidan: soch o‘rimlaringni soni yuzdan o‘tibdi, men necha tun va kunni ko‘rgan bo‘lsam undan ham o‘tibdi, agar yuz yosh ko‘rganga rahming kelsa – mening yoshim ikki yuzdan o‘tibdi degan mazmun anglashiladi. Tarjima mazmunan asliyatga aynan mos. Misra oxiridagi “ótipti” so‘zi bir xil ma’noda qo‘llanilgan. Tuyuqning tajnissiz qofiyalanadigan turi borligini hisobga olsak, tarjimaning advekatligini qayd qilishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

E’tirof etish lozimki, kuzatilgan va tahlili qilingan namunalar Navoiy tuyuqlarini qaroqalpoq tiliga tarjima qilishdagi dastlabki tajribalardan biridir. Ularda tarjimon imkon darajasida asliyatdagi ma’no-mazmun va shaklni tarjimada aks ettirishga erisha olgan. Bitta misrani tushunib yetish shunchalik qiyin ekan, tarjimonning mehnati nechog‘lik og‘ir ekanligini tasavvur qilavering. O‘zbek va qoroqalpoq tillaridan qilingan tarjimalar har ikki xalqni bir-biriga yaqinlashtiradi, tarjima tili leksikasining boyishida ham muhim rol o‘ynaydi. Tarjima tufayli xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik, qardoshlik, hamkorlik mustahkamlanadi, madaniy va adabiy aloqalar yanada kengayadi. Tarjima asarlar sababli o‘quvchilarning estetik didi yuksaladi, fikrlashi, dunyoqarashi kengayadi, bilimi oshadi, jahon madaniyatining go‘zal na’munalari bilan tanishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

1. Алишер Навоий Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик Бешинчи том. Хазойин ул-маоний, Бадоеъ ул-васат “Фан” нашриёти, Т.: – 1990, 528 бет.
2. Alisher Nawayi. G‘azzeller. Nókis: “Qaraqalpaqstan” baspası, 2020-jıl, 80 bet.
3. Алишер Навоий асарлари тилининг изохли луғати. I том. -Т.: Фан. 656 bet.
4. Hamidov X.X. Tarjimashunoslik fanidan ma’ruza matnlari.T.:–2002.
5. Homidov H. O‘zbek adabiyoti. “O‘qituvchi” nashriyoti, 2000-yil. G‘afur g‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2003-yil.
6. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. 3 том. Нукус “Қарақалпақстан” 1988. 336 бет.
7. Salomov G‘. Komilov N. Do‘stlik ko‘priklari (poeziya va tarjima) G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti Toshkent – 1979.– 224 bet.
8. Tarjima san‘ati: Maqolalar to‘plami 5-kitob (Tahrir hay‘ati: G‘.Salomov (mas‘ul muharr.) va boshq.; To‘plovchi T.Jo‘rayev) – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1980.–304 bet.
9. Алишер Наўайы “Фархад ҳамъ Ширин” Қарақалпақ мамлекет баспасы. Торткул – 1941.
10. Наўайы А. Жети ықлым, Нөкис, “Қарақалпақстан” , 1968. 220 бет
11. Алийшер Наўайы Сайландылары. Нөкис, “Қарақалпақстан” 1991.
12. Алийшер Наўайы Ғаззеллер. Нөкис, “Қарақалпақстан” 1977.
13. Alisher Nawayi. G‘azzeller. Nókis: “Qaraqalpaqstan” baspası, 2020-jıl, 80 bet.
14. Таржима санъати мақолалар тўплами. Таҳрир ҳайъати: З.Есенбоев ва бошқ. Тўпловчи: Т.Жўраев. –Т., Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978 С. 4-китоб № 328 б.